



SPAIN

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE



2023 YEAR

SPAIN, MADRID



Spanish international scientific online conference
PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE





ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE

International scientific-online conference

Part 5

October 29th

COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS

MADRID 2023



PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE: a collection scientific works of the International scientific online conference (29th October, 2023) – SPAIN, Madrid: "CESS", 2023. Part 5– 191p.

Chief editor:

Candra zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, india, english, казакша, o'zbek, limba română, Spanish, кыргыз тили, Հայերէն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference "**PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE**". Which took place in Madrid on October 29, 2023.

Conference proceedings are recomanded for scientits and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2023
© Authors, 2023



TABLE OF CONTENTS:

Аліпбаева Қырмызы Тілепбаевна <i>ЎЛТ ҮШИН ТУЫЛҒАНДАР</i>	7
Abduxalilov Mansurjon Maxamadvaliyevich O'ktamov Ahliyor Yusufjon o'g'li <i>QIYOSH KOLLEKTORLARIDAN FOYDALANIB MEVA VA SABZAVOTLARNI QURITISH</i> <i>ISTIQBOLLARI</i>	10
Egamberganov Isobek Hamdambek o'g'li <i>TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI</i>	13
А.Б.Абдумуталипов, Жамолиддинов Рахматилла Бахтиёр ўғли <i>ҚЎЛЖАНГИ СПОРТ ТУРИНИ КУРСАНТЛАРДА ЯНАДА РИВОЖЛАНТИРИШ</i> <i>ЧОРА ТАДБИРЛАРИ</i>	17
N.V.Tuxlieva <i>TECHNIQUE OF EDITING TEXTS OF INFORMATION GENRES</i>	20
Г.Х.Абдурасулова <i>VINCE ERECTA ЎСИМЛИК ТУРИДАН АЖРАТИБ ОЛИНГАН ИНДОЛ</i> <i>АЛКАЛОИДЛАРИНИНГ ФАРМОКАЛОГИК ФАОЛЛИГИНИ ТАХЛИЛ ҚИЛИШ</i>	23
Turdialiyeva Muxtasarxon <i>KIMYONI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR</i>	30
Shigakova Lyutsiya Anvarovna <i>DEVELOPMENT OF RESEARCH SKILLS WHEN TEACHING BIOLOGY TO STUDENTS</i> <i>USING VIRTUAL PROGRAMS</i>	32
Баходир Шавкатович Закиров <i>ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММНЫХ</i> <i>ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ОБЩИХ НАУК</i>	37
Hayitboyev Xurshidjon Nizomovich N.N.Zubaydova, Sh.O.Mamayoqubova <i>O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARIGA CHET TILLARINI O'QITISHNING INTERFAOL</i> <i>METODLARI</i>	40
Sharipova Adiba U.Mirzaliyev <i>MIRZACHO'L VOHASI AHOLISINING IJTIMOIIY MUNOSABATLARI</i>	43
Sh.Y.Yokubova, M.B.Usmonova <i>OBJEKTLI BIRIKMALARNING QURILISH QOLIPLARI XUSUSIDA</i>	52
Musayeva Gavharjon Alisherovna <i>QORAQALPOG'ISTON ARXEOLOGIYASI</i>	57
Нилуфар Талибжановна Умирзакова <i>ТЕЛЕВИЗИОН ЭФИРДА ҚАҲРАМОН ПЕРСОНИФИКАЦИЯСИНИНГ ТИЛ</i> <i>УСУЛЛАРИ</i>	62
Abdullayev Jamoliddin Solijonovich, Bozorqulov Adhamjon Abdujabborovich Satvoldiyev Inomjon Abdusalimovich <i>TO'RBURCHAKLARDAGI METRIK MUNOSABATLAR</i>	67
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Maniyozov Oybek Azatovich Jo'rayeva Dilnavoz Umidjon qizi <i>DISKRET MATEMATIKADA MARSHRUTLAR VA ZANJIRLAR</i>	73
Тўхтасинов Дадахон Фарходович	78

OBJEKTLI BIRIKMALARNING QURILISH QOLIPLARI XUSUSIDA

Sh.Y.Yokubova

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o'qituvchisi

M.B.Usmonova

BuxDU Filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Substansial tahlil natijalariga ko'ra, til mohiyat e'tibori bilan tizim hisoblanar ekan, tizimni tashkil etuvchi birliklar orasida muayyan munosabatlar bo'lganidek, lisoniy tizim birliklari orasida ham ma'lum munosabatlarning mavjudligi shubhasizdir.

Til tizimida paradigmatic munosabatning o'рни va ahamiyati masalasini tahlil qilish natijasida bu munosabat lisoniy birliklar orasida hamda lisoniy sathlararo yuzaga chiqishi ma'lum bo'ldi. Paradigmatik munosabatdagi lisoniy birliklar orasidagi ziddiyatlarning dialektik qurilishida lisoniy birliklar orasidagi davomiylikni, o'zaro bog'lanishni, birining ikkinchisiga o'tib turish jarayonini o'zida aks ettirishida til yaxlit tizim sifatida gavdalanadi. Shuningdek, til tizimida paradigmatic munosabat lisoniy sathga tegishli birliklararo bog'lanishni muayyan paradigmalar ko'rinishida ifodalash imkoniga ega ekanligi tufayli fonologik paradigma, leksik paradigma, morfologik paradigma va sintaktik paradigmalar ajratiladi.

So'z birikmalari paradigmalarini aniqlash paradigmatic munosabat sintaktik sath birliklarida yuzaga chiqishini yana bir karra tasdiqlaydi. Ayni paytda, paradigmatic munosabat lisoniy hodisa bo'lganligi uchun uni bevosita kuzatish orqali aniqlab bo'lmaydi. Modomiki, bu lisoniy hodisa empirik bosqichda aniqlanmas ekan, muayyan obyektli birikmalarda paradigmatic munosabatning mavjudligini nutqiy hodisalarni o'xshashlik asosida ketma-ket joylashtirish orqali isbotlab bo'lmaydi. Tabiiyki, "obyektli birikmalar paradigmalarini qanday belgilash kerak?" degan savol tug'iladi. Bu savolga javob obyektli birikmalarning lisoniy-sintaktik qurilish mohiyatini aniqlash orqali topiladi. Shunday ekan, obyektli birikmalar qurilishiga xos umumiy lisoniy mohiyatni aniqlash zaruriyati mazkur sintaktik birliklar formal- funksional (substansial) tadqiq usullari asosida tahlil qilinishini taqozo etadi.

O'zbek tilida so'z birikmalarining formal-funksional nuqtayi nazardan tadqiq natijalari asosida jamiyat a'zolari nutqida muayyan ehtiyoj yuzasidan tasodifiy, o'zgaruvchan, betakror xususiyatlari bilan beixtiyor moddiylashuvchi so'z birikmalari lisoniy-sintaktik qurilish qolip(LSQ)larining hosilalari ekanligi isbotlangan. Chunonchi, "O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari" o'quv qo'llanmasida "bizning ongimizda, ya'ni lisonda so'zlash, nutqni shakllantirish uchun xilma-xil maqsadlarga xizmat qiluvchi leksemalarni so'z birikmalari sifatida bog'lash, leksema yoki so'z birikmalariga gap shaklini berish qoliplari bor"ligi ta'kidlangan [2;6]. Ushbu qo'llanma mualliflari – H.Ne'matov, R.Sayfullayeva, M.Qurbonovanning qarashlariga ko'ra: "Mana shu so'z birikmalari va gaplarni hosil qilish qoliplari lisoniy-sintaktik qolip (LSQ)lardir, LSQlarni modellar, konstruksiyalar, qurilmalar ham deb ataydilar" [2;6]. Kishilar LSQlarni jamiyatdan tayyor holda qabul qilib oladilar va ularni o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartira olmaydilar, LSQlarning har

biri tilimizda o'ziga xos shakl va mazmunga egadir. O'z navbatida shakl va mazmun istagan LSQning tashqi moddiy tomonini va ichki-mazmun, vazifa tomonini tashkil etadi. Shunisi muhimki, LSQ ma'lum bir shakl va ma'lum bir mazmunning nomutanosib (asimmetrik) bog'lanishidan iborat bo'ladi.

So'z birikmalarida ham muayyan qurilish tarhi, chizmasi mavjud bo'lib, ularning ma'lum guruhini birlashtiruvchi qurilma sifatida ajratilishi mumkin. Xususan, obyektli birikmalarning tobe so'zi tushum kelishigi vositasida shakllangan bir guruhini "xatni yozmoq", "ko'ylakni tikmoq", "kitobni o'qimoq", "kattani hurmat qilmoq", "yomonni yashirmoq", "kichikni e'zozlamoq", "yaxshini qadrlamoq", "egrini tuzatmoq", "yuzni bo'lmoq", "ikkini ayirmoq", "mingni ko'zlamoq", "saksonni qoralamoq", "gumbur-gumburni eshitmoq", "jimirl-jimirlarni ko'rmoq", "chug'ur-chug'urni tinglamoq", "sim-simni sezmoq", "birovni aldamoq", "o'zini o'ylamoq", "o'qiganni baholamoq", "izlaganni topmoq", "yashashni istamoq", "sevmoqni o'rganmoq" kabi hosilalar tashkil etadi. Bu nutqiy hosilalar sintaktik qurilishiga xos umumiy xususiyatlar ularni bir guruhga birlashtiradi. Boshqacha aytganda, mazkur birikmalarning tobe a'zosi ot, sifat, son, taqlid, olmosh, sifatdosh harakat nomi bilan ifodalangan bo'lsa ham, tushum kelishigi [-ni] shaklida lug'aviy asosi fe'ldan iborat hokim a'zoga birikishini namoyon etgan. Demak, berilgan obyektli birikmalarning tobe a'zosi mavqeyida ot - [O], sifat - [S_f], son - [S], taqlid - [T], olmosh - [O_{lm}], sifatdosh - [S_d] va harakat nomi - [H_n] tushum kelishigi shaklida voqelashadi va hokim a'zo mavqeyidagi fe'l - [F]ga birikishning usulini belgilaydi. Harakat ma'nosining obyekt ma'noli so'zlarga tushum kelishigi vositasida o'tganligini bildiruchi so'z birikmalarining sintaktik qurilishini quyidagi ramziy ifodalarda tasvirlash mumkin:

- 1) [O^{t.k}-F];
- 2) [S_f^{t.k}-F];
- 3) [S^{t.k}-F];
- 4) [T^{t.k}-F];
- 5) [O_{lm}^{t.k}-F];
- 6) [S_d^{t.k}-F];
- 7) [H_n^{t.k}-F].

Hosil bo'lgan yetti xil ramziy ifoda obyektli birikmalarning tushum kelishigi vositasida shakllanadigan turiga tegishli so'z birikmalarining sintaktik qurilishini faqat birikish usuliga ko'ra belgilaydi. Ayni choqda, bu ramziy ifodalar tahlil qilinayotgan so'z birikmalari lisoniy-sintaktik qurilishini umumlashira olmaydi. Aksincha, yetti xil ramziy ifodaning har biri birikmalar tarkibidagi so'zlarning leksik-semantik imkoniyatlari tushum kelishigi shakli belgilaydigan yangi sifat kasb etishini, ya'ni leksik-morfologik jihatdan birikish imkoniyatlarini alohida aks ettiradi. Shunga ko'ra, yetti xil ifoda tushum kelishikli obyektli so'z birikmalarining sintaktik qurilishini ta'minlovchi yetti xil leksik-morfologik usulini ixchamgina, ammo shartli qabul qilingan ramzlar orqali qamrab oladi. Demak, [O^{t.k}-F], [S_f^{t.k}-F], [S^{t.k}-F], [T^{t.k}-F], [O_{lm}^{t.k}-F], [S_d^{t.k}-F], [H_n^{t.k}-F] qismlarida tushum kelishikli obyektli birikmalar qurilishiga xos birikish usuli alohida-alohida ifodalangan bo'lib, mazkur qurilishning xususiy shakllari hisoblanadi. Aytish joizki, obyektli birikmalarning tushum kelishigi vositasida shakllanuvchi turiga tegishli qurilish qolipining

xususiy shakli yetti ko‘rinishda ekanligi ma’lum bo‘ldi. Albatta, yetti xil xususiy shaklning yetti xil mazmuni bo‘lishi kerak. Tabiiyki, yetti xil qolip o‘z miqdoriga teng va o‘z sifatiga mos mazmundagi nutqiy hosilalarni yuzaga chiqaradi. Masalan, $[O^{t.k}-F]$ xususiy shakli harakatning tushum kelishigidagi predmetga, ya’ni narsa, buyum, shaxs yoki hodisaga o‘tganligini bildiruvchi so‘z birikmalarida mazkur mazmun tobe va hokim so‘zlarning leksik-morfologik belgilariga muvofiq bo‘ladi. Shuning uchun har bir xususiy shaklga xos ma’no xususiyatlarini alohida tavsiflashga zarurat yo‘q. Shunday ekan, [obyekt-harakat] ma’noli so‘z birikmalarining sintaktik qurilishini ifolovchi biz aniqlagan xususiy shakllari asosida umumiy sintaktik qolipni keltirib chiqarish mumkin. Bu umumiy sintaktik qolip quyidagicha bo‘ladi:


$$[I^{t.k.-F}] = [\text{obyekt-harakat}] \text{ SB.}$$

Bizga ma’lumki, lisoniy-sintaktik qurilish qolipi riyoziy tenglama kabi ikki qismdan iborat bo‘ladi. Bu ikki qism qolipning chap tomoni va o‘ng tomoni bo‘lib, tenglik ular orasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Lisoniy-sintaktik qolipning chap tomoni til birliklarining birikish tarzini, o‘ng tomoni esa mazkur birikish natijasi, ya’ni qolip mahsulini ifodalaydi. Shunga ko‘ra, $[I^{t.k.-F}]$ shakli tobe a’zo mavqeyidagi tushum kelishigi bilan shakllangan ismlar va hokim a’zo mavqeyidagi fe’llarning birikish usulini umumlashtiradi.

Oldingi qismda keltirib chiqarilgan yettita qolipning har biriga xos birikish usuli $[I^{t.k.-F}]$ ramziy ifodasi mohiyatida mujassamlashadi. Qolipdagi $[F]$ ramzi ostida tushum kelishigidagi ismlarni biriktirish imkoniyatiga ega bo‘lgan “harakat” ma’noli leksemalar mohiyatan birlashgan bo‘ladi.

Ma’lum bo‘ladiki, $[I^{t.k.-F}]$ qolipi umumiy shakl sifatida yetti xil xususiy shaklga ega bo‘ladi. Mazkur qolip shakllarining o‘zaro aloqadorligini umumiylik-xususiylik dialektikasi asosida quyidagicha tasvirlash mumkin:



Chizmadan ko‘rinib turganidek, $[I^{t.k.-F}]$ shaklida tobe a’zosi yetti xil so‘z turkumiga tegishli lug‘aviy asoslarning leksik-semantik xususiyatlari va $[-ni]$ ta’sirida shakllanuvchi morfologik xususiyatlar qamrab olinadi. Bu esa “1.1-1.7” ketma-ketligidagi har bir qolip xususiy shakl ekanligini tasdiqlaydi. Ammo chizma qolipning o‘ng tomoni bo‘shligini ham anglashga yordam beradi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, o‘ng tomonda birikish mahsuli aks etishi kerak. Mazkur qolipning o‘ng tomonidan [obyekt-harakat] ma’noli so‘z birikmalari, ya’ni “SB” ramzi o‘rin oladi. Demak, $[I^{t.k.-F}] = [\text{obyekt-harakat}] \text{ SB}$ qolipi tushum kelishigidagi ism va fe’llarning o‘zaro birikivi hamda uning mahsuliga xos lisoniy mohiyat

ifodalangan umumiy shakl va mazmun aloqadorligidan iborat. Biz yuqorida obyektli birikmalarning formal tahlil usullari asosida tushum kelishigidan tashqari jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi ko'rsatkichlari hamda ko'makchilar vositasida shakllanadigan turlari ajratilganligini qayd etgan edik. Bu formal-logik tasnifda asos qilib olingan morfologik vosita, aslida, birikish usulini belgilovchi omil bo'lib, tobe a'zo mavqeyida jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi va ko'makchi shaklini oladigan ot, sifat, son, olmosh, taqlid, sifatdosh, harakat nomlarning fe'llarga bog'lanishini ta'minlaydi. Demak, mazkur morfologik vositalarga xos biriktirish qobiliyati sanalgan lug'aviy asoslarning semantik birikuvchanlik qobiliyati bilan birgalikda yuzaga chiqishi sintaktik qurilishga xos asosiy xususiyat va ko'makchi shaklidagi ot, sifat, son, olmosh, taqlid, sifatdosh, harakat nomlari egallaydi. Tobe va hokim a'zolar orasidagi bunday ikki yoqlama bog'lanish semantik va morfologik valentliklar hisobiga amalga oshadi. Shunday ekan, [obyekt-harakat] ma'noli so'z birikmalarining lisoniy-sintaktik qurilishini umumlashtirish imkoniyati tug'iladi. Bu imkoniyat tobe a'zosi [obyekt] ma'noli ot, sifat, son, olmosh, taqlid, sifatdosh, harakat nomlaridan tuzilgan va hokim a'zosi [harakat] ma'noli fe'llarga kelishik hamda ko'makchi vositasida birikishini o'z mohiyatida mujassamlashtirgan quyidagi umumiy sintaktik qoliplarni keltirib chiqarishga asos bo'ladi:

1. $[I^{k.k.}-F]=[obyekt-harakat]$ SB.
2. $[I^{ko'm.}-F]=[obyekt-harakat]$ SB.

Demak, o'zbek tilida mavjud [obyekt-harakat] ma'noli nutqiy hosilalarning lisoniy-sintaktik qurilishi $[I^{k.k.}-F]=SB$ va $[I^{ko'm.}-F]=SB$ qoliplari mohiyatida o'z aksini topadi. Shunga ko'ra, bu qoliplar [obyekt-harakat] ma'nosini bildirgan so'z birikmalarini yuzaga chiqaruvchi umumiy sintaktik qoliplar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Nazarova S. Birikmalarda so'zlarning erkin bog'lanish omillari. Nomzodl. disser. ...avtoref.-T., 1997. - 21 b.
2. Ne'matov H., Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. - T.: Universitet, 1999.
3. B.E.Kilichev, M.Z.Safarova. Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
4. B.E.Kilichev, M.Z.Safarova. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, <http://t-science.org/> p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2021.02.05
5. B.E.Kilichev, M.Z.Safarova. The Concept of Totemism and Ethnonym. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and..., 2022. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xE0DgREAAAAJ&citation_for_view=xE0DgREAAAAJ:u-x6o8ySG0sC
6. Yokubova, S. (2021). Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 7(7).

7.Yokubova, S. (2021). Относительно формального грамматического описания объектных соединений. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 7(7).

8.Yokubova, S. (2020). Объектные сочетания. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).

9.Yokubova, S. Y. (2023). O‘ZBEKONA GAP QURILISHIDA FE‘LNING TUTGAN O‘RNI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(11), 421–426. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4003>

10. Yusufovna, Y. S. (2022). POETIK NUTQDA MA‘NO KO‘CHISH YO‘LLARI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 674-677.